

G`ulomova Nazira Rustamjon qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası tayanch
doktoranti

TASAVVUFIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAXS TARBIYASI (SO'FI OLLOYOR ASARLARI MISOLIDA)

UDK:37.013.42(575.1)

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_9_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_9_8)

G'ULOMOVA N.R-Q. TASAVVUFIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAXS TARBIYASI (SO'FI OLLOYOR ASARLARI MISOLIDA)

Maqolada So'fi Olloyor asarlari asosida hozirgi vaqtgacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning pedagogik tizimi, uslub shakl va modellari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. Undagi islomiy fikr va mushohadalar hozirgi davr bilan ham hamnafas ekanligi, asar mohiyati pedagogik tizim shaklida bayon etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: tarbiya, qadriyat, jamiyat va burch, tasavvufiy tushuncha, loqaydlik.

ГУЛОМОВА Н.Р-К. ВОСПИТАНИЕ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ СУФИЙСКИХ ЦЕННОСТЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА СУФИ ОЛЛОЯРА)

В статье представлен анализ научных исследований, проведенных к настоящему времени на основе трудов Суфи Оллоёра, информация о педагогической системе, методах, формах и моделях духовно-нравственного воспитания. Исламские мысли и наблюдения, изложенные в ней, актуальны для современной эпохи, а суть работы выражена в форме педагогической системы.

Ключевые слова и фразы: воспитание, ценность, общество и долг, мистическая концепция, равнодушие.

GULOMOVA N.R-K. PERSONAL EDUCATION ON THE BASIS OF SUFI VALUES (ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF SUFI OLLOYOR)

The article provides an analysis of scientific research conducted to date on the basis of the works of Sufi Olloyor, information about the pedagogical system, methods, forms and models of spiritual and moral education. The Islamic thoughts and observations in it are relevant to the present era, and the essence of the work is expressed in the form of a pedagogical system.

Key words and phrases: education, value, society and duty, mystical concept, indifference.

***Uyalma ma'rifatni o'rganurdin,
Tanur joying bo'lur, qolsang tanurdin!***

(So'fi Olloyor¹)

Kirish.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, jahon sahnasida o'zligimizni fan va madaniyat hamda boshqa sohalar bilan tanitib kelmoqdamiz. Ta'lim va tarbiya tizimida ko'zga ko'rinarli asarlar tarixini o'rganish fan va madaniyat sohasiga salmoqli hissa qo'shdi. Tarixiy asarlarni o'rganish jarayonida o'zbek xalqi naqadar salohiyatga ega ekanligi ahamiyatlidir. Sho'ro tuzumi davrida bir qator ilm sohasini tutgan adiblar, millatning ongiga ma'naviy ozuqa beradigan asarlar yo'q qilindi. Ulardan foydalanish man etildi. Shu sababli xalq mafkurasi rus tuzumi bilan to'lgan tushunchalar bilan boyitildi. Bu esa o'z navbatida o'zbek mentalitetiga xos bo'lmagan jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan turli xil oqim ortidan ergashish, bid'atparastlik hamda Kalomda keltirilmagan im-u amallarni bajarish, va avom xalq uchun ko'zbo'yamachilik qilib o'zidan voiz-u murshidlar yasab olgan kimsalar shular jumlasidandir. Aynan So'fi Olloyorning asarlari ana shunday yot bo'lgan g'oyalar hamda oqimlar uchun yozilgan qiymati qimmatli asarlar sirasiga kiradi.

Tasavvufda insonning nafsini poklash, qalbini nurga to'ldirish, komillikka erishish yo'lidagi ruhiy-madaniy ta'limot sharq ma'naviyatining eng go'zal sahifalaridan biridir. O'zbek ma'naviy merosida tasavvuf va uning pedagogik qarashlari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, So'fi Olloyorning **"Sabotul ojizin"** va **"Maslak ul-muttaqin"** asarlari tasavvufiy axloqiy qadriyatlarni chuqur va xalqchil tilda ifoda etgan asarlardan biri. Bu asar yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Tazkiralarda So'fi Olloyor nomi nihoyatda ulug'lanadi. Bunga sabab uning asarlari bilan bog'liqligidadir.

So'ngi yillarda ta'lim va tarbiya tizimida O'zbekiston Respublikasini Prezidentining bir qancha Farmon va Qarorlar yaratilayotgan islohotlar va yoshlarga beriladigan ishonch va e'tibor aynan vatan ravnaqi uchun xizmat qilib kelyapti. Shunga ko'ra uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan dolzarb pedagogik jarayon sifatida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston-2030" strategiyasida muhim o'rin egallaydi. Unda fundamental tadqiqotlarni zamon

talablaridan kelib chiqib yangi yo'nalishlar bilan boyitish² kabi masalalar o'rin egallaydi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida quyidagilar belgilangan "Yangi O'zbekiston –ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab avaylash, keng ommalashtirish va rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash³... Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 502-sonida "Shuhrating porlasin toki bor jahon" shiori ostida ta'lim muassasalaridagi adabiyot, ma'naviyat, odob-axloq va tarbiya bilan bog'liq bo'lgan mahorat darslarini tashkil etish, adiblar yashab ijod qilgan hudud va qadamjolarga ilmiy-ma'rifiy ekspeditsiyalar tashkil etish hamda ular bilan bog'liq bo'lgan konferensiyalar o'tkazib borish, talabalar qalbida adabiyotga, ona tilimizga mehr, hurmat va e'tibor hissini yuksaltirish maqsadida oliy o'quv yurti havaskorlik jamoalari tomonidan ularga birlashtirilgan atoqli adiblarning hayoti faoliyati va asarlari asosida spektakllar sahnalashtirish...⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni PF-5416-sonida esa quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi⁵.

– "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadri-

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-avgustdagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi 502-son qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son Farmoni.

¹ So'fi Olloyor "Sabotul ojizin", Rashid Zohid sharhi. Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2024. 42-bet

yatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

- islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ong u tafakkurini shakllantirish;

- dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

- jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

- jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

- globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish;

Shuningdek, faoliyatga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz yuqorida keltirilgan asoslarga asosan, talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimini ilmiy asosda bayon etib berishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunga qadar, So'fi Olloyor asarlaridan islomshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo pedagogika sohasida, (Oliy ta'lim tizimida), talabalarining ma'naviy axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimi modeli yaratilmagan.

Tadqiqotning maqsadi So'fi Olloyor asarlari mazmun va mohiyatini ochib berish, tadqiqotlarda o'rganilgan jihatlarini tahlil qilish, aniqlanmagan shakllarini shakllantirish hamda uning asarlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyada pedagogik tizim jarayonida ilmiy asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimini rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot predmetini talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimi mazmuni, shakl, metodi va vositalari tashkil etadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. So'fi Olloyorning "Sabotul-ojizin" (Ojizlar

saboti) va "Maslak ul muttaqin" asarlari eng birinchi yozilgan aqoidiy asar hisoblanib, undagi tarbiya negizi islomiy tarzda ifodalab berilgan. Aynan so'fiylik ta'limoti sharq mamlakatlari bilan bir qatorda g'arb mamlakatlarida ham qiziqish uyg'otdi. MDH davlatlarida bu borada J.Spencer Trimingham "The Sufi Orders in Islam" (Islomdagi so'fiylik tariqati) asarida o'zining ilmiy tadqiqot ishida so'fiylikning kelib chiqish shakllari mohiyatini, islomdagi tariqatlar, ularning tarixi va ijtimoiy funksiyasi haqida keng va chuqur tahlil beradi¹. Annemarie Schimmel "Mystical Dimensions of Islam" (Islomning mistik o'lchovlari) tasavvufning falsafasi, tarixiy rivoji va estetikasi haqida chuqur tahlil qilib beradi². Schimmel g'arb olamida tasavvufni chuqur tahlil qilib ifodalagan olimlardan biri. Carl.W.Ernst "Sufism: An Introduction to the Mystical Tradition of Islam" asarida islomdagi tasavvuf (ya'ni, so'fiylik) harakati va mafkurasini ilmiy, madaniy, va falsafiy nuqtai nazardan keng tahlil qiluvchi kirish darajasidagi kitobdir³. Asar G'arbiy o'quvchi uchun yozilgan bo'lsa-da, undagi keltirilgan ma'lumotlar har qanday musulmon o'quvchi uchun ham qiziqarli, ham tushunarli. Carl W. Ernstning "Teachings of Sufism" da-amaliy ta'limotlar, zikr, shayx-shogird munosabatlari haqida bayon qilinadi⁴.

O'zbekistonda So'fi Olloyor hayoti va ijodi haqida bir nechta adabiyotshunos islomshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuhrat Sirojiddinov ilmiy tadqiqot ishida So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" , " Maslak ul muttaqin " asarlarini falsafiy, adabiy, axloqiy tarzda tasniflaydi⁵. Asarlar mazmunini tarbiyaviy jihatdan zamonaviy pedagogika bilan birgalikda bog'laydi. Roshid Zohidov So'fi Olloyor hikoyatlari kitobida So'fi Olloyorning «Sabotul-ojizin» hikoyalariga yozilgan izohlar jamlangan⁶. Zarur ma'no izohlari, tarixiy kontekst va zamonaviy o'quvchilar uchun tushunarli tarjimalar mavjudligi bilan ajralib tiradi. Aynan bu adabiyotshunos So'fi Olloyor ilmiy merosi bo'yicha chuqur

¹ J.Spencer Trimingham "The Sufi Orders in Islam" Oxford University Press, 1998.

² Annemarie Schimmel "Mystical Dimensions of Islam" , the University of North Carolina Press Chapel Hill; 1975, published-2011

³ Carl W. Ernst "Sufism: An Introduction to the Mystical Tradition of Islam" SHAMBHALA published-1997

⁴ Carl W. Ernst "Teachings of Sufism"-SHAMBHALA published-1999

⁵ Shuhrat Sirojiddinov. So'fi Olloyor ilohiyoti –Toshkent -2001

⁶ Rashid Zohidov, "So'fi Olloyor hikoyatlari" 1-kitob, Sarq –nashriyat matbaa-Toshkent-2008

ilmiy tadqiqot olib borgan olim. Rustamxon Kotibov o'zining tadqiqotida asar mohiyatini bola tarbiyasi va pedagogika oid zamonaviy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qiladi¹. Keyingi yillarda taniqli adabiyotshunos akademik B.Valixojayev, I.Haqqulov, R.Sayfiddinov, N.Olloyorova, N.Baratovlarning maqola va tadqiqotlarida mutafakkir shoir asarlarining turli jihatlari yoritiladi².

Asosiy qism.

Pedagogik tizimda ma'rifiy nazariyalar asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb muammolarga aylanib bormoqda. Bunga sabab aynan yoshlarning texnikalar zamonida haqiqiy olamni virtual olamdan ajratolmasliklaridadir. So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin", "Maslak ul-muttaqin" asarlari yosh avlodning turli xil g'aliz fikr mulohazalar va mushohadalarning oldini olishga xizmat qiladi. Ma'naviy ma'daniyatni yangilashda mumtoz adabiyot asarlarining o'zni o'z davrida nihoyatda mavqei baland bo'lgan bo'lib, hali hanuzgacha bu jarayon o'z qiyamatini yo'qotmagan.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimini zamonaviy texnologiyalar va metodlar asosida rivojlantirishdan iborat. Bu esa bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi:

- 1) Talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimini tendensiyaviy yondashuvlar asosida uyg'unlashtirish;
- 2) O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash shakllari va samarali usullarini aniqlab, tarbiya berish motivlarini ishlab chiqish;
- 3) So'fi Olloyorning ma'naviy merosidan foydalangan holda turli texnologiyalarni takomillashtirish;
- 4) So'fi Olloyorning ma'naviy merosidan foydalanish asnosida yoshlarning yot, begona urf-odat va madaniyatlardan yiroq qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Hozirgi davr talabi asosida ma'naviy, axloqiy g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishda yangidan yangi zamonaviy pedagogik tizimga asoslangan hamda milliylikni o'zida jamlagan metodlar hamda motivlar mavjud. Aynan ilmiy tadqiqotlarda ulardan

mavzuga to'g'ri yo'nalgan holda foydalanish ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asarlarni tarbiyaviy shakllar orqali talabalarga amaliy tarzda yetkazish usullari:

1. Tasavvufiy suhbatlar - Haftada bir marotaba So'fi Olloyor asarlaridagi g'oyalar asosida seminar tashkil etish;
2. Axloqiy munozaralar - "Sabotul ojizin" yoki "Maslak ul-muttaqin" asarlaridan iqtiboslar keltirib, mavzu doirasida "fikrlar dueli" uslubi asosida tarbiyaviy tahlil qilish;
3. Esse va ijodiy topshiriqlar - So'fi Olloyor g'oyalari asosida;
4. Rolli sahnalar - Talabalar tomonidan axloqiy holatlarni sahnalashtirish;
5. Videodarslar/Prezentatsiyalar - Raqamli platformalarda mini-leksiya yoki iqtibos tahlillari; "Ma'naviy uyg'unlashuv" metodi orqali bosqichma-bosqich dars jarayonida asarlardan foydalanish tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Tahliliy o'rganish – So'fi Olloyor asarlaridagi axloqiy-irodaviy g'oyalarni aniqlash.

2. Aktualizatsiya – Zamonaviy muammolar bilan bog'lab talabalarga tanishtirish.

3. Tarqatma vazifalar – Hayotiy holatlarda g'oyalarni qo'llashga o'rgatish.

4. Shaxsiy refleksiya – O'zini anglash, baholash, odob mezonlariga tayanib fikr bildirish.

Yangi pedagogik model ya'ni **"4I modeli"** orqali asarlarni talabalarga tatbiq etish tartibi.

Inspiration (Ilhom) - So'fi Olloyor asarlaridan g'oya olish;

Asarlardagi kerakli g'oyalarni tanlab olish va ularni qo'llash talabalarni asarlarga nisbatan e'tiborini ko'proq qaratishga yordam beradi.

Internalization (Ichki qabul) - ichki munosabat o'rnatish;

Olingan g'oyalar asosida ichki munosabat o'rnatish ya'ni, ularni shaxs ruhiyatiga singdirish g'oya mazmunini tezroq anglab olishga undaydi.

Integration (Integratsiya) - ta'lim jarayoniga kiritish;

Asarlardagi g'oyalar mazmunini turli xil fanlar tizimining tarbiyaviy maqsadiga qo'llash asarga bo'lgan moyillikni oshiradi.

Implementation (amaliyotga tatbiq) - Ijtimoiy faoliyatda qo'llash;

Ta'lim jarayonida tarbiyaga tegishli bo'lgan qismlarda asardagi fikr va mulohazalarni hayotiy voqealar asosida ijtimoiy faoliyatga tatbiq etish amaliy ko'nikmalarni mukammal tarzda egallashga yordam beradi.

¹ Kotibov Rustamxon Bositxon o'g'li, "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy masofaviy, onlayn konfereksiya -2023

² Umida Safarova, INTER EDUCATION&GLOBAL STUDY, ISSN 2992-90249 (online), 2024, n-4(1).

Xulosa.

Tasavvuf Sharq ma'naviyatining eng go'zal sahifalaridan biri bo'lib, insonning nafsni poklash, qalbni nurga to'ldirish, komillikka erishish yo'lidagi ruhiy-madaniy ta'limotdir. O'zbek ma'naviy merosida tasavvuf va uning pedagogik qarashlari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, So'fi Olloyorning **"Sabotul o'jizin"** va **"Maslak ul-muttaqin"** asarlari tasavvufiy axloqiy qadriyatlarni chuqur va xalqchil tilda ifoda etgan asarlardan biridir. Bu asar yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda bebaho manba sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan shakl ,metod va modellar pedagogik tizim jarayonida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanish sabr-toqat, tavoze , ichki dunyosini boyitish hamda odob jihatlarini singdirishga turtki bo'ladi. So'fi Olloyorning asarlari yosh avlodni o'zini anglash, halollik va saxovat yo'lida tarbiyalashda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Shu o'rinda quyidagi **takliflar** orqali yechim topishga undaydi:

- Zamonaviy axloqiy muammolarni So'fi Olloyor asarlari g'oyalari asosida yechish;
- Asar parchalaridan na'munalar olib, ularni jahon pedagogika va psixologiya tajribalari bilan birgalikda solishtirish;
- Talabalarining axloqi va ma'naviyatini turli o'yinlar orqali baholash;
- Dialogik ta'lim asosida So'fi Olloyor asarlari ustida bahs munozaralar tashkil etish;

Zamonaviy ta'lim tizimida tasavvufiy asarlarni ta'lim dasturlariga kiritish o'quvchi yoshlarni ma'naviy kamolotga yetishi uchun qulay imkoniyat hisoblanadi. Sababi hozirgi globallashuv davr talablari asosida yangilanayotgan O'zbekistonda aynan yoshlarning ma'naviy jihatdan ularning ong bo'shliqlarini to'ldirish turli xil ma'naviy xurujlarni oldini olishga xizmat qiladi. Zero, ma'naviy to'yinganlik moddiy ehtiyojlar bilan birga inson nafsini tiyadi va shaxsiy kamolotini, axloqiy me'yorlarini shakllantirishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston -2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida"gi PF-5416-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz me'rosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda adiblar hiyobonidan samarali foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi 502-son qarori.
5. J.Spencer Trimingham. "The Sufi Orders in Islam". - Oxford University Press, 1998.
6. So'fi Olloyor "Sabotul o'jizin", Rashid Zohid sharhi. - Toshkent "MATBAACHI" nashriyoti-2024. 42-bet.
7. Annemarie Schimmel. "Mystical Dimensions of Islam". - The University of North Carolina Press Chapel Hill; 1975, published-2011
8. Carl W. Ernst. "Sufism: An Introduction to the Mystical Tradition of Islam". - SHAMBHALA published -1997
9. Carl W. Ernst. "Teachings of Sufism". - SHAMBHALA published-1999
10. Shuhrat Sirojiddinov. So'fi Olloyor ilohiyoti. – Toshkent: 2001.
11. Rashid Zohidov. "So'fi Olloyor hikoyatlari". 1-kitob, - Toshkent: Sharq nashriyot matbaa. 2008.
12. Kotibov Rustamxon Bositxon o'g'li. "So'fi Olloyor asarlarida pedagogik qarashlarning qiyosiy tahlili". "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy masofaviy, onlayn konfirensiya. 2023.
13. Umida Safarova. "Talabalarda So'fi Olloyor ijodida ma'naviy ma'rifiy g'oyalar talqini". INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY, ISSN 2992-90249 (online), 2024, n-4 (1).
14. Kutubxona.uz